

**YOSHLAR VA IJTIMOIY TARMOQ VOSITALARIDAN FOYDALANISH****AXLOQINING DOLZARB MASALALARI**

Sharopova Feruza Valijon qizi,

Farg'ona davlat universiteti Tarix fakulteti,

Ijtimoiy ish yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarning ijtimoiy tarmoqlaridan unumli foydalanish zaruriyati, shuningdek to'gri maqsadlar uchun foydalanishlari xususida atroflicha so'z boradi.

Kalit so'zlar: internet, ijtimoiy tarmoq, odob-axloq, alloma, tarbiya, ma'rifat.

Аннотация: В этой статье подробно рассматривается необходимость эффективного использования социальных сетей молодыми людьми, а также их использование в правильных целях.

Ключевые слова: интернет, социальная сеть, этикет, образование, воспитание, просвещение.

Annotation: This article examines in detail the need for effective use of social networks by young people, as well as their use for the right purposes.

Keywords: internet, social network, etiquette, education, upbringing, enlightenment.

Hozirgi kunda yoshlارимиз о'rtasida ijtimoiy tarmoq vositalaridan foydalanish juda ham omalashib ketmoqda. Bu yaxshi albatta, lekin ayrim yoshlар ijtimoiy tarmoqlardan to'g'ri foydalanmasdan behayo suratlarni, kliplarni kinolarni ko'rishga qiziqishlari ortib bormoqda. Bu esa ularni ongini zaxarladi va ularda ko'plab muamolarga duch kelishlariga zamin yaratib beradi. Ijtimoiy tarmoq vositalarining hayotimizda bo'lishi biz uchun juda foydali lekin hamma insonlar ham unda to'g'ri foydalana olmaydilar. Shuning uchun biz yoshlar internetdan qanday foydalanish kerakligini o'zimizning ongimizni ishlatgan xolda odob-axloq normalaridan chiqib ketmasdan foydalanishimiz lozim. Ijtimoiy tarmoqlardagi ba'zi bir ko'satuv, kino va kliplar salbiy ta'sir ko'satmoqda. Yurtimizda internetdan foydalanuvchilarning aksariyati "Odnoklassniki", "Facebook", "Telegram", "Youtube" va "Instagram" kabi tarmoqlarda o'z profillariga ega. Ba'zi bir qizlarmiz o'z profillariga qo'yayotgan suratlarini ko'rib, uyalib ketasan kishi. Bizning o'zbekchilikka to'gri kelmaydigon qiliqlar bilan videolar olib, uni ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirib, obunachilar sonini ko'paytiraman deb kutib turishlari achinarli holat. Hozirda kunda yoshta



nisbatan insonlarning ongi ancha kattaroq bo'lib ketdi, bu esa bizning yoshlarimizning yoshiba munosib narsalarni ko'rmasdan katta yoshlilar uchun mo'ljalangan narsalarni ko'rganlaridan dalolat beradi. Hayotimizda telefon, umuman internetning biz uchun zarur foydali jihatlari ham juda ko'p. Misol uchun telefon bizni uzog'imizni yaqin qilish uchun, internet esa bilmagan narsalarimizni ko'rib o'rganishimiz uchun xizmat qiladi. Balog'at yoshidan o'tish jarayoni vaqtida yoshlar har xil narsalarga og'ib ketishi juda kuchli bo'ladi. Shuning uchun farzandlarimizning tarbiyasiga putur yetib qolmasligi uchun doimo ularni telefonlarini nazorat qilib turishimiz kerak. Taniqli ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning "Tarbiya-biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokatm yo-saodat-yo falokat masalasidir" jumllari bejizga aytilmagan. O'zimiz bilmagan holda farzandlarimizni tarbiyasini be'etibor qoldirib qo'yishimiz mumkin. Bu esa juda katta sabiy oqibatlarga olib keladi .Har bir narsaning o'z meyori bo'lishi kerak shu qatori ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning ham meyordan oshib ketmagan ma'qul Qadimda mashhur otabobolarimiz yashagan vaqtarda telefon bo'lishi tugul xató elektr manbai ham bo'lмаган lekin ular xató sham yorug'ida ham qorong'ida ham qorong'u kechalarda kitob mutola qilib o'z bilimlarini oshirib borishgan u paytlar o'zlarini qiziqtirgan savollarga faqat kitoblardan ma'lumotlar olishgan bugungi kunga kelib biz yoshlar buyuk ajdodlarimizga munosib farzandlar bo'lib yetishishimiz lozim. Chunki bizning ajdodlarimizdan dunyoga mashhur alomalar chiqqan. Dunyodagi barcha davlatlar bizning alomalarimizni o'timishdan internet ham juda yaxshi tanishadi. Yaqin-yaqindan beri bizning tilimizga, kirib kelgan "Internet", "Facebook", "Google" atamalarini har birimiz kundalik hayotimizda juda ko'p ishlatalamiz, lekin ularning asl ma'nosi va qaysi tildan kirib kelganligi haqida o'ylab ko'rmaganmiz.

Internet bu – xozirgi zamон talabidagi yagona ommabop kompyuter tarmog'i hisoblanib, bizga barcha sohalarga oid noaniqlik ya'ni ongimizga mavhum bo'lgan tushunchalar haqida ochiq, oddiy va ravon ma'lumot beruvchi axborot manbaidir. Tabiiyki, hozrgi kunda ushbu omilga bo'lgan ehtiyojmandlar soni kundan kunga ortib bormoqda. Mazkur tarmoq butun dunyo miqyosida global tarmoqdir. Zero unda mavjud yangiliklardan xabardor etuvchi matnlar, tasvir hamda ovoz xizmatlari va bir qator imkoniyatlar barcha jabhada katta yengilliklarni yuzaga keltirayotgan bo'lsa-da, ammo ikkinchi tomondan insoniyatni beixtiyor virtual olamga jalb etib bormoqda.



Barchamzga ma'lumki, internetda ishlashimiz uchun qidiruv tizimining o'rni beqiyos. O'zingizga kerakli barcha ma'lumotlarni shu kabi biron bir saytning "izlash" katakchasiga yozib, chiqarilgan ko'pgina ma'lumotlar ichidan o'zingizga keraklisini tanlab olaverasiz yoki ma'lum bir saytning manzili yodingizdan ko'tarildimi, yana o'sha qidiruv sistemalari yordamga keladigan saytga aloqador kalit so'zlarini terasiz va qarabsizki o'sha sayt qarshingizda namayon bo'ladi.

Internet tarmog'ida: Yahoo, Google, Ref.uz singari yana boshqa nomlar bilan ataluvchi qidiruv tizimlari mavjud.

Yuqoridagi qidiruv dasturlari haqida bat afsil va umumiyligi ta'rif berishda ularni biror bir tizim orqali masalan, Google tizimini tushuntirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu kompaniya Internetdagi yetakchi qidiruv tizimi hisoblanadi, dunyo bo'y lab tarmoq foydalanuvchilarning o'ntadan yettiasi u yoki bu ma'lumotlarni topish ilinjida aynan mana shu saytga murojat qilishadi. Tizim har kuni 50 mlionga yaqin so'rovlarni qabul qiladi, sakkiz milyardlab veb-sahifalarni indeksatsiya qiladi. Darhaqiqat, hozirda nafaqat Internet tarmog'i vujudga kelganligi, bundan tashqari shu kabi jahonaro rivojlanib keayotgan turli – tuman axborot texnologiyalar yosh avlodga ijobjiy ta'sir kuchini o'tkazayotganligini bir tomonidan quvonarli bo'lsa – da, ikkinchi tomonidan ularni turli salbiy saboqlardan asrash maqsadida tarbiyaviy muhitni kuchaytirishga undaydi.

Kompyuter-ingilizcha "hisoblayman", oldindan berilgan dastur bo'yicha ishlaydigon avtomatik qurilma manosini anglatadi. Ijtimoiy tarmoq vositalarining barcha turlari bizning hayotimizni og'irini yengil qilish uchun xizmat qiladi. Biz undan o'rinci foydalanishimiz zarur omil hisoblanadi. O'zimizning bilim ko'nikmalarimizni oshirish maqsadida ijtimoiy tarmoqlardan unumli foydalansak o'zimiz va atrofimizdagi insonlar uchun ha foydasi yaxshi bo'ladi. Har birimiz o'z vatanimizga loyiq inson bo'lismiz kerakligini unutmaylik. Har bir o'z o'rnida foydalanish odob-axloqiga rivoya qilgan xolda foydalanishimiz lozim Xulosa qilib aytganda ijtimoiy tarmoqlardan oqilona foydalanishlari uchun avvalo ularga o'zimiz o'nak bo'lismiz shart. Xalqimizda "Qush uyasida ko'rganini qiladi" degan maqol bejizga aytilmagan. Aslida, internet, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarni tashkil etishdan asosiy maqsad ilm olish imkoniyatlarini osonlashtirish, o'zaro munosabatlarda qulaylik yaratish edi. Biroq bugungi kunga kelib, ularning vazifalari tobora kengayib, maqsadlari ham o'zgarib bormoqda.



Internet paydo bo'lgandan beri ba'zilar uni ijobiy baholashsa, ba'zilar salbiy tomonlarini gapiradi. Bu mavzudagi maqbul qarash shuki, internet ham televizor, radio kabi bir vosita. Uni yaxshilikka ishlatsak – yaxshi, yomonlikka ishlatsak, yomon narsaga aylanadi. Demak, bizning eng muhim vazifamiz – internetdan yomon maqsadda foydalanayotgan insonlarga, ayniqsa yosh avlodga, to'g'ri yo'lni ko'rsatish, zararli oqibatlardan ogohlantirishdir. Boshqa tomondan esa ijtimoiy tarmoqlarda milliy-diniy qadriyatlarimizga zid narsalarni targ'ib qilayotgan shaxslar ta'siriga tushmaslik yo'llarini o'rgatishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Google ijtimoiy tarmoq
2. O'zbek xalq maqollari kitobidan
3. Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asaridan.